



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



2023-yil
19-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2023-yil 19-oktabr

Toshkent – 2023

“O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov – Toshkent, 2023.

Mas’ul muharrir:
Sh. Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

O.Jamoldinova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor
M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
M.Umurzoqova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
D.Muhammadiyeva - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
K.Rixsiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
I.O‘razova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
S.Bozorova – katta o‘qituvchi
M.Xolmuradova — filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Z.Davronova – o‘qituvchi
Z.O‘rinova – o‘qituvchi
A.Yusupova – o‘qituvchi
M.Abduzizova – o‘qituvchi
S.Qahhorova – tayanch doktoranti

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya”sida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-yilning 19-oktabr kuni ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida tashkil qilingan “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallarini o‘z ichiga oladi. Maqolalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug‘atshunoslik, o‘zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo‘nalishlar masalalariga bag‘ishlangan. Maqolalarda o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o‘rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Mazkur to‘plam tilshunoslikka doir masalalarni o‘zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg‘unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo‘naltiradi. Mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 7-oktabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2-sonli bayonnoma)

“Development of the Uzbek language and issues of international cooperation” Materials of international scientific-practical conference. Responsible editor: Sh. Sirojiddinov. – Tashkent, 2023.

Responsible editor:

Sh. Sirojiddinov

Doctor of philological sciences, professor

Editorial Board:

O.Jamoldinova – Vice Rector for Research and Innovation
H.Dadaboev – Doctor of philological sciences, professor
B.Abdushukurov – Doctor of philological sciences, professor
Z. Kholmanova – Doctor of philological sciences, professor
M.Khakimova – Doctor of philological sciences
M.Umurzakova – Candidate of philological, associate professor
D.Muhammadiyeva – Candidate of philological, associate professor
M.Shamsiyeva – Candidate of philological, head teacher
K.Rikhsiyeva – Candidate of philological, head teacher
I.Urazova – Candidate of philological, head teacher
S.Bozorova – head teacher
M.Kholmuradova – Candidate of philological, head teacher
Z.Davronova – teacher
Z.Urinova – teacher
A.Yusupova – teacher
M.Abduzizova – teacher
S.Kahhorova – doctoral student

This collection of scientific articles is prepared in accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2020 No. PF-6084 "On measures to further develop the Uzbek language and improve the language policy in our country" in order to ensure the implementation of the tasks defined in the concept of "The development of the Uzbek language and improvement of the language policy in the 2020-2030", Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi was established on October 19, 2022 based on the plan of scientific and scientific- technical activities, it includes the materials of the scientific-practical conference on "The development of the Uzbek language and issues of international cooperation". The articles are devoted to the historical development of the Uzbek language, Turkology, dialectology, lexicology, and modern branches in Uzbek linguistics. The articles inform about the historical roots of the Uzbek language, study linguistic views in classical sources, research in modern linguistic branches based on an integrative approach such as sociolinguistics, linguoculturalology, psycholinguistics, neurolinguistics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, linguopoetics, linguofolkloristics, linguodidactics, computer linguistics, corpus linguistics, it was noted that conducting research, analyzing the problems of language theory and applied linguistics, and translation studies is of urgent importance in increasing the prestige and position of the Uzbek language as a state language. This collection directs linguistic issues to the research of the history and current development of the Uzbek language on the basis of harmony and integration. This collection is intended for professors, teachers, doctoral students, researchers, graduate students and all interested people. Discussed at the meeting of the Council of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on October 7, 2023 and recommended for publication (Protocol №. 2)

tavsiflash va nutq realizatsiyasiga ajratiladigan vaqt (matn) tejaladi. Qaysidir ma'noda, badiiy matnning ishonarlilik hamda pragmatik ta'sir o'tkazish darajasi oshiriladi.

– *E-e!* – Grisha asabiy qo'l siltadi. – *Nasihatingizni nevarangizga qiling!*

O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar.

– *Hoy, Nazirbuvi, shu bo'ladigan ishmi, yo raisning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib jo'natdikmi?* A.Qahhor. O'tmishdan ertaklar.

Undovlar, birinchi navbatda, gapiruvchining hissiy bahosini ifoda etadi, ikkinchidan, bir vaqtning o'zida biron bir narsa haqida xabar berayotganda voqelikka munosabatini bildiradilar hamda maxsus ovoz tarkibi (emfaza) bilan ajralib turadi.

Tovush tizimi va zarbiga ko'ra ko'plab undovlar bir havo zarbi bilan aytiladigan bir bo'g'inli so'zlardir. *Oh, voh, eh, dod, voy, uh, e, o, i* va shu kabilar. Og'zaki nutqda, ularning shartli imlosini to'liq tushuntiradigan (verballashtiradigan) fonetik birliklar mavjud emas. Insonga xos barcha ruhiy-psixologik holatlar va his-tuyg'ularga aloqador momentlarni matnda fonetik-artikulyatsion jihatdan shakllantirishda har qanday til egalarining layoqati chegaralangan.

Ibodini soqov bir qatigga qaraydi, bir Oqpodshoga qaraydi. Lablarini buradi-buradi...ho'ngrab yig'lab yuboradi. Qatig'ini ko'rsatib-ko'rsatib yig'laydi: "Ea-ea-ea", deydi:

"Endi ayamga nima deyman?" Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar.

Tilshunoslikda bu jumlar emotsional baholash bo'lib, undov gaplar taxminiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bu ma'no obyektlar, shaxslar yoki hodisalarni subyektiv baholash uchun xizmat qiladigan va kuchli ifoda, hissiyot bilan aytiladi. Hissiy baho beruvchi jumlar ham o'ziga xos undov jumlaridir.

– *Ha, ha, siz Shamayga ham bordingizmi?* – *deb Ziyoshohichi ajablandi.*

A. Qodiriy. O'tkan kunlar.

Affekt (kuchli, lekin qisqa muddatli emotsional reaksiyalar) bosqichidagi jumlar suhbatdoshning haqiqatga modal munosabatini, bu haqiqatga subyektiv baho berishini bildiradi. Bunday jumlarning mazmuni so'zlar, iboralar va ularning intonatsiyasidan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda hissiy baholash jumlaridan keyin ishlatiladigan yondosh jumlar bu tonallikni konkretlashtiradi. Xuddi shu obyektning ifodalovchi hissiy baholash jumlari bir hil komponentlar shaklida ishlatilishi mumkin, lekin ularni tashkil etuvchi materiallar jihatidan farq qiladi. Bu suhbatdoshning his-tuyg'ulari kuchli va yorqin bo'lishidan kelib chiqadi.

– *"Qora ko'zlari, kamon qoshlari..."*

– *A-a-a, – dedi Hasanali va qaytadan qulog'ini tirqishg'a olib bordi.*

A.

Qodiriy. O'tkan kunlar.

– *Ie, shunchalik qurt boqasizlari, qancha pilla chiqishini bilmaysizlarmi?* A.Qahhor. O'tmishdan ertaklar.

Gap semantikasini shu gap tarkibida qo'llanilayotgan so'zlarning faqat obyektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina to'la izohlash mumkin emas. Bunga gapning nutq jarayoniga, nutq vaziyatiga munosabatini aniqlashni ham qo'shish zarurati tug'ildi. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag'ridan lingvistik pragmatika o'sib chiqdi [Hakimov, 2013: 13]. Subyektiv bahoni ifodalovchi hissiy baholash jumlari obyektiv voqelikning ma'ruzachiga ta'siri ikki guruhga bo'linadi: birinchidan, obyektiv voqelikni ijobiy baholash. Bunda obyektiv voqelikning so'zlovchiga ijobiy ta'siri natijasida u hayratlanadi, quvonadi, rohatlanadi va hokazo. Ushbu taassurot ta'siri ostida u obyektiv haqiqatga ijobiy munosabatda bo'lib, uni ijobiy baholaydi.

– *Barakalla, o'g'lim, – dedi Hasanali, – javobingiz o'z o'ylag'animchadir.*

A. Qodiriy. O'tkan kunlar.

Ikkinchidan, obyektiv voqelikni salbiy baholash. Bunda esa obyektiv haqiqat so'zlovchiga salbiy ta'sir qiladi, natijada so'zlovchi xafa bo'ladi, g'azablanadi, nafratlanadi va hokazo. Shuning uchun u obyektiv haqiqatga salbiy munosabatda bo'lib, uni salbiy baholaydi.

– *E, o'rgildim-e, sendaqa yordamchilardan.* X.To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati.

Hasanali hamon o'ziga tikilib turg'anini bilib, manglayini qashig'an bo'ldi: – Xo'sh, davom etingiz... A. Qodiriy. O'tkan kunlar.

Insonning lison taraqqiyoti rivojlangan sari undovlarning ham qo'llanish doirasi kengayib, real borliq koordinatlarini o'zining nutqiy birliklarida namoyon etib bormoqda. Borliq voqeligida akslangan har qanday hodisa badiiy matnda undovlarning lingvistik, semantik, psixolingvistik, kognitiv-pragmatik hodisa sifatidagi xususiyatlari namoyon bo'lib boraveradi. Qolaversa, badiiy matnda so'zning estetik vazifasi va ta'sir radiusi kengaytirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аксаков А. О грамматике вообще. – Москва: Наука, 1875.
2. Виноградов В. Русский язык. – Москва: Высшая школа, 1943.
3. Usmonov S. O'zbek tilida undovlar. Filol.fan.kan-ti...diss. – Toshkent, 1952.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: 2007.
5. Кубрякова Е. Язык и знание. – Москва: Наука, 2004.
6. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – Москва: Наука, 1934; Овсяников-Куликовский Д. Синтаксис русского языка. – Москва: Наука, 1912; Р.Аванесов и В.Сидоров. Русский язык. – Москва: 1934.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalolingvistikasi asoslari. – Toshkent: 2013.

HARAKAT USULINI IFODALOVCHI FE'LLARDA TROPONIM-GIPERNIM MUNOSABATI

TROPONYMY-HYPERNYM RELATIONSHIP IN VERBS EXPRESSING MANNER OF ACTION

Qahharova Sabohat *

Annotatsiya. Umumiy ma'noli bilimlar muayyan harakatlar oqibatlarini bashorat qilishga va aniq natijalar uchun mumkin bo'lgan harakatlarni ochishga imkon beradigan asos munosabatlar sanaladi. Ana shu mavhumlikni aniqroq ifodalaydigan semantik munosabat turi bu troponimik munosabatdir. WordNET – leksik ma'lumotlar bazasi (WN)da troponim boshqa fe'lning o'ziga xos tarzda ifodalanishini bildiruvchi fe'l sifatida belgilanadi. Mazkur maqolada ham aynan harakat fe'llari o'rtasidagi troponimiya munosabati tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: semantik munosabatlar, paradigmatik munosabatlar, sintagmatik munosabatlar, WordNET, troponim-gipernim munosabati

Abstract. Abstract semantic knowledge is considered the basic relationship that allows predicting the consequences of certain actions and uncovering possible actions for specific results. A type of semantic relation that more clearly expresses this abstraction is the toponymic relation. In the WordNET lexical database (WN), a troponym is defined as a verb that expresses another verb in a unique way. In this article, the relationship of toponymy between action verbs is researched.

Key words: semantic relations, paradigmatic relations, syntagmatic relations, WordNET, troponym-hypernym relation.

Kirish. Lisoniy birliklarning ma'no munosabatlarida paradigmatic va syntagmatic munosabatlar keng qo'llaniladi. Paradigmatik munosabatlar bir xil sintaktik muhitda bir-biri bilan almashtiriladigan til birliklari o'rtasida namoyon bo'lsa, syntagmatic munosabatlar esa sintaktik munosabatda birga kelgan til birliklari o'rtasida mavjud deb qaraladi. Ushbu munosabatlar leksik birliklarning semantik jihatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Misol

* Tayanch doktorant. O'zMU. E-pochta: sabohatqahharova922@gmail.com

uchun, ingliz tilining katta leksik ma'lumotlar bazasi –WordNetda soʻzlar oʻrtasidagi quyidagi semantik munosabatlar qayd etiladi:

Semantic relations in wordnet

1. **Synonymy**
 2. **Hypernymy / Hyponymy**
 3. **Antonymy**
 4. **Meronymy / Holonymy**
 5. **Gradation**
 6. **Entailment**
 7. **Troponymy**
- 1, 3 and 5 are lexical (*word to word*), rest are semantic (*synset to synset*).



Mana shu semantik munosabatlarga gipo-giperonim munosabati asosan ot turkumidagi sinsetlarga mansubligi, fe'llarda esa troponim-gipernim munosabati yetakchilik qilishi aytiladi: fe'llarda "troponim" atamasi "giponim" o'rniga ishlatiladi, fe'llar orasidagi troponimiya munosabatini quyidagi formula bilan izohlaydi: "To V, is to V in a all a spicularly", bunda V – gipernim V ning troponimi. Shu sababdan tilshunoslikda troponimiya kontseptsiyasi dastlab Kristian Fellbaum va Jorj Miller tomonidan taklif qilingan. Ular keltirgan ba'zi misollar quyidagicha: "*tishlash* – ma'lum bir tarzda usulidir"[George A. Miller, Richard Beckwith, Christiane Fellbaum, Derek Gross, Katherine J. Miller. 1990:235-244]. Bunda *tishlash* – troponim yoki giponim; *ovqatlanish* – gipernim yoki giperonim hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida harakat fe'llari keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsa-da, shu paytgacha biror o'rinda troponim-gipernim munosabati haqida fikr-mulohazalar berilmagan [Пасулов, 1989:141].

Asosiy qism. Troponimiya WordNet ma'lumotlar bazasining semantik tarmog'idagi fe'llar o'rtasidagi mavjud munosabatlardan biridir. Aniqroq aytganda, troponimiya – mazmunan yaqin leksik birliklarning troponim-gipernim, ya'ni aniq va umumiy tushunchalarni ifodalashi jihatidan ular o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlarni o'zida aks ettiruvchi semantik munosabati turi. Troponim esa ma'no jihatdan boshqa so'zlarga qaraganda aniqroq so'zdir, gipernim esa kengroq ma'no doirasini o'z ichiga olgan umumiyroq atamadir. Misol uchun, "*yurmoq*" leksemasi "*harakat qilmoq*"ning troponimidir, chunki u harakatlanishga qaraganda aniqroq usulni ko'rsatuvchi birlikdir, "oyoq uchi" esa yurishning aniqroq usulini anglatgani uchun "yurmoq" leksemasining troponimdir. Ayni damda "yurmoq" fe'li "oyoq uchi" leksemasi uchun gipernim, "*harakat qilmoq*" fe'li uchun esa troponim sanaladi. Ikki yuzdan ortiq tillardagi so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni o'z ichiga qamrab olgan WordNET – leksik ma'lumotlar bazasida fe'l sinsetlari o'zaro turli xil munosabatlar (gipo-giperonim, troponim-gipernim, kogiponim-gipernim) orqali bog'langan bo'lsa-da, lekin troponim-gipernim munosabati fe'l sinsetlari orasida asosiy va eng ko'p uchraydigan munosabatdir [Fellbaum C. and G. Miller. 1990:565-567] Agar gipernim mavhum, umumlashtirilgan ma'nodagi fe'l bo'lsa, troponim gipernimning biror narsa qilish usulini aniqroq ko'rsatib berish maqsadida muloqot jarayonida kengroq ishlatiladi. Troponim-gipernim munosabatlari iyerarxik, ya'ni vertikal shaklda. Shuning uchun bu iyerarxiyaning eng yuqorida gipernimlar va quyisida shunga mos keladigan troponimlar joylashadi, novdalari pastga tushib, yanada kengaytiriladi, natijada yuqoridagi sinsetlar bilan ulkan fe'l to'ri yaratiladi. Eng pastki tomonda joylashgan, fe'l sinseti yuqoridagilarga qaraganda aniq tushunchani ifodalaydi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin: